

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

**HOFIZ XORAZMIY “DEVON”IDAGI ZONIMLARNING
LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI**

R.M.Madaminova

O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va

folklori instituti 3-bosqich tayanch doktoranti

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada Hofiz Xorazmiy “Devon”idagi zoonimlar haqida fikr yuritiladi. Zoonim so‘zlar mavzuviy guruhlariga ajratilib o‘rganiladi. Ba’zi so‘zlar etimologik tahlil qilinadi.*

***Kalit so‘zlar:** devon, zoonimlar, arabcha so‘z, forscha so‘z, turkcha so‘z, terminlar, lug‘at.*

***Аннотация:** В данной статье рассматриваются зоонимы “Дивана” Хафиза Хорезми. Слова-зоонимы разделены на тематические группы и изучены. Проведен этимологический анализ некоторых слов.*

***Ключевые слова:** диван, зоонимы, арабское слово, персидское слово, турецкое слово, термины, словарь.*

***Abstract:** This article discusses zoonyms in “Divan” by Hafiz Khorezmi. Zoonym words are divided into thematic groups and studied. Some words are etymologically analyzed.*

***Key words:** divan, zoonyms, arabic word, persian word, turkish word, terms, dictionary.*

Hofiz Xorazmiy Lutfiy, Atoiy, Sakkokiy kabi Navoiygacha bo‘lgan dunyoviy poeziyaning yirik vakilidir. Uning she‘riyati inson baxt-saodati, uning erkligi va dunyoviy hayotni kuylashga qaratilgan. Badiiy mahorat va o‘zbek tilida g‘oyat sodda va ravon g‘azallar yaratishda uni Navoiygacha bo‘lgan o‘zbek g‘azaliyotining benazir ustozlari desa arziydi [1:15-16]. Hofiz Xorazmiy “Devon”ida o‘z o‘rni bilan bir guruh zoonimlar qo‘llanilgan. Asarda hayvonot dunyosiga mansub 73 ta so‘z uchraydi. Ulardan 17 tasi uy hayvonlari nomlari, 15 tasi esa yovvoyi hayvonlar nomlari, 4 ta sudralib yuruvchi hayvonlar nomlari, 1 ta kemiruvchi hayvonlar nomlari, 23 ta qush nomlari, 5 ta suvda yashovchi hayvonlar nomlari, 7 ta hasharotlar nomlari, 1 ta o‘rgimchaksimonlar nomlaridir. Ushbu ko‘rsatilgan har bir tur hayvonlarning nomlari turkcha, arabcha va fors tillari orqali kirib kelgan o‘zlashma so‘zlardan iborat.

Asar tilida ishlatilgan hayvonlar nomini anglatuvchi terminlarni quyidagi mavzuviy guruhlariga ajratib, funksional-semantik aspektda tahlil qilish maqsadga muvofiq:

1. Uy hayvonlari: *bat, bora, Duldul, jady, it, nar, ot, savr, sag, samand, tavsan, teva, to‘ya, o‘chku, xar, shohsuvor, qo‘zi (17ta);*

Biz bu o‘rinda ba’zi hayvon nomlarining etimoni haqida fikr yuritamiz.

Teva qadimdan xalqimiz orasida ulov vazifasini bajarib kelgan hayvondir. Bu so‘z turkcha so‘z bo‘lib, Hofiz Xorazmiy “Devon”ida *tuya* ma’nosida istifoda etilgan. Nofaol qo‘llanilgan bu so‘z manbada faqat bir o‘rinda uchraydi:

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

Chakkil bu mol tevasini manzilga tegru rost,

Chunkim elingda bor hamisha mahor-i she’r. [Devon I, 127-bet]

Qadimiy obidalar tilida *tebā* shaklida istifoda etilgan: *tebāsiñārū barmīš ürüy iñāni botulamīš - tuyasi tomon bordi, uning oq tuyasi tug’di*. [3:564] *Iñān* so‘zi urg‘ochi tuya ma’nosida kelgan.[4:211] E.B.Sevortyan lug‘atida *teva* so‘zining ayrim turkiy tillarda *tövā*, *tügā* kabi bir qancha shakllarda mavjud ekani sanalgan.[8:356]

O‘g‘uz lahjasida *дѣѡ* shaklida; дѣѡнь улльсь көпърнь устьндэ тайак ѡѡдѣ-туяning kattasi ko‘prik ustida tayoq yeydi; eski o‘zbek tilida *tevā*; Ibn Muxanna (*dive*, 27, *tive*, 73); turk tilida *deve*; ozarbayjon tilida *dāvə*; qirg‘iz tilida *təø*; turkman tilida *dye*; qipchoq lahjasida *tryə*; adabiy tilida *tuya* [18:78] shaklida qo‘llanilgan.

Ko‘rinadiki, *teva* so‘zi tarkibidagi barcha tovushlar turlicha o‘zgarishlarga uchrab, hozirgi o‘zbek tiliga bu so‘zning boshlanishidagi undosh *t* tarzida, birinchi bo‘g‘indagi unli *u* tarzida, ikkinchi bo‘g‘in boshidagi undosh *y* tarzida talaffuz etiladigan shakli yetib kelgan [9:356].

2. Yovvoyi hayvonlar: *bo‘ri*, *g‘azanfar*, *g‘azol*, *g‘izol*, *dad*, *dajla*, *dom*, *markab*, *naxjir*, *ohu*, *palang*, *pil*, *rang*, *rubah//ruboh*, *sher*(15ta);

Ohu so‘zi eski o‘zbek tiliga fors tili orqali kirib kelgan o‘zlashmadir. “Devon”da kiyik ma’nosida istifoda etilgan. Faol ishlatilib, ellik uch o‘rinda uchraydi:

Sayd etgali ohug‘a o‘qni otar ersa,

Ohu borur ul o‘qina behush ravon pesh.

G‘azol ohu so‘zining arabcha varianti hisoblanadi. Bu so‘z nafaol ishlatilib, faqat bir o‘rinda uchraydi:

Ko‘z qarartur jumla arbob-i maoniy so‘zuma,

Ul g‘azol uchun qachonkim aytsam Hofiz g‘azal. [Devon II, 24-bet]

Naxjir ohu so‘zining forscha ekvivalenti hisoblanadi. Faqat bir o‘rinda uchraydi:

Tilasang o‘qing otg‘ali sayd yonig‘a,

Ravon kelur o‘qinga pesh ul zamon naxjir. [Devon I, 214-bet]

Yuqorida keltirilgan misollardan ko‘rinadiki, so‘z san’atining mumtoz va yetuk vakili Hofiz Xorazmiy o‘z she’riyatida sinonimik qatorlardan unumli foydalangan.

Ohu bu ot B.V.Millerning Forscha-ruscha lug‘atida [ahy] tarzida keltirilib, “yovvoyi echki” ma’nosini, Tojikcha-ruscha lug‘atda *ohu* shaklida keltirilib, “kiyik”, “tog‘ kiyigi”, “qora echki” ma’nolarini anglatishi aytilgan.[10:179] “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da bu otga “chiroyli qora ko‘zli kiyik; ko‘chma ma’noda nozik, sergak mahbuba” [19:197] deya izoh berilgan. Bu ot bilan *ohu ko‘z* birikmasi tuzilib, “*ohu ko‘ziga o‘xshash chiroyli ko‘z*” ma’nosini anglatadi.

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

3. Sudralib yuruvchi hayvonlar: *Ajdaho, yilon, ilon, mor (4ta)*;

Ilon. Sudralib yuruvchi, oyoqsiz, tanasi ingichka va uzun, ko‘zlari shaffof qovoqlar bilan qoplangan jonivor [20:198]. Shavkat Rahmatullayev “O‘zbek tilining etimologik lug‘ati”da ilonga “uzun dumaloq tanali, terisi yordamida sudralib harakatlanadigan, ko‘zlarida qovog‘i yo‘q jonivor” deya ta‘rif bergan. Muchal yili hisobida oltinchi yil nomi ham ilon yili deb nomlanadi. Hofiz Xorazmiy “Devoni”da bu so‘zning *ilon, yilon, mor* shakllari uchraydi. *Ilon* shakli bir o‘rinda, *yilon* shakli bir o‘rinda keltirilgan:

Turfa ermas bo‘yungda ul qaro soch,

To‘lg‘anur tolg‘a ham yilon, ey do‘st. [Devon I, 63-bet]

Ko‘zumda zulfi birla soidi shakli kurunadur

Aningtakkim, ko‘runsa bahr ichinda og‘ ilon mohiy. [Devon II, 235-bet]

Mor ilon so‘zining forscha muqobili sanaladi. Manbada bu so‘z *ilon* ma‘nosida istifoda etilgan. *Mor* shakli manbada to‘qqiz o‘rinda uchraydi:

Xalqa-xalqa kamand-i zulfu qaddi,

Sar ustinda mor-i bejondur. [Devon I, 97-bet]

Zulfiki, ham bo‘lub turur oy bikin yuzi uzra,

Ganjning uzra go‘yo mor eruru aqrabe. [Devon II, 242-bet]

O‘rxun-Yenisey yozma manbalarida *yilan*, Mahmud Koshg‘ariy lug‘atida *yil*, *yilan*, “Tafsir”da *yilan*, L.Z.Budagov lug‘atida *yilan* shaklida ko‘rsatilib, bu so‘zning asosi *ilmoq* yoki *yilmoq* so‘zlaridan yasalgan deb taxmin qilinadi, Radlov lug‘atida ham *yil+an*, XIV asr Xorazm yozma manbalarida *yilan*[2:111] tarzida uchrashini B.Bafoyev yozgan. Sh.Rahmatullayev esa ilon so‘zining etimoni haqida quyidagicha izoh bergan:

Bu ot qadimgi turkiy tildagi “qimirla-”, “jil-” ma‘nosini anglatgan **yil-**fe‘lidan **-(a)n** qo‘shimchasi bilan yasalgan; o‘zbek tilida so‘z boshlanishidagi **y** undoshi talaffuz qilinmay qo‘ygan, **a** unlisi **â** unlisiga almashgan, **ı** unlisining qattqlik belgisi yo‘qolgan: **yil+an = yılan > ilan > ilân**. [11:116]

Ilon so‘zi hozirgi o‘zbek adabiy tilida *ilonbaliq, ilonbosh* kabi so‘zlarning yasalishida asos vazifasini o‘tagan.

4. Kemiruvchi hayvonlar: *samandar (1ta)*;

Samandar so‘zi forscha o‘zlashma bo‘lib, Hofiz Xorazmiy “Devon”ida “kalamushga o‘xshash jonivor (afsonaga ko‘ra go‘yo o‘tdan paydo bo‘lib, o‘t ichida yashar emish)” ma‘nosida istifoda etilgan. Nofaol qo‘llanilgan bu so‘z manbada uch o‘rinda uchraydi:

Ul zog‘ sifat zulfi tovus yuzi uzra,

O‘tg‘a tushubon kuymas go‘yoki samandardur. [Devon I, 100-bet]

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

Samandar o‘zlashmasi Alisher Navoiy asarlarida ham yuqoridagi ma’noda qo‘llanganini kuzatish mumkin:

Ulki ul kullardin axgardek chiqib,
Balki axgardin samandardek chiqib. (L.T)[7:544]

O‘zbek tilining izohli lug‘atida *samandar* so‘ziga “mif. Afsonaga ko‘ra, go‘yo o‘t ichida tug‘iladigan va o‘tda yashaydigan maxluq”[21:434] deya izoh berilgan. Bugungi kunda bu o‘zlashma erkaklarga ism sifatida qo‘yiladi.

5. Qushlar: *andalib, anqo, boz, bulbul, zog‘, kabk, kabutar, karag, karak, kuku, qumri, qush, murg‘, Semurg‘, sor, tishi, Tovus, To‘ti, foxta, hazor, humoy, chipchuq, shahboz (23ta);*

Chumchuq ko‘pincha xonadonlarga yaqin joylarda yashaydigan, hasharot va don bilan oziqlanadigan kichkina qush. Hofiz Xorazmiy “Devon”ida “*chipchuq*” shaklida istifoda etilgan. Manbada ushbu so‘zni ikki o‘rinda uchratamiz:

Ko‘zlari kirpuk ila sayd qilur ko‘nglumni,
Sayd chipchuqni netak aylasa panja bila boz. [Devon I, 247-bet]
Jon berib jononag‘a Hofizki vaslin izdayur,
Sayd qilmoqliq tilar chipchuq bila shahbozni. [Devon II, 179-bet]

Alisher Navoiy asarlarida *chumchuq* tarzida qo‘llangan:

Yana bir tojikim, vazni oltmish botmon erdi, oltundinkim ming gavhar bila mukallal qilib erdilarkim, har biri chumchuq yumurtqasicha.[1:244]

Chumchuq so‘zi L.Z.Budagov lug‘atida *chibchiq, chubchuq, chupchuq, chimchik* shakllarida keltirilgan; qirg‘iz tilida *chumchik* tarzida, qozoq tilida esa *shumshuq* tarzida[12:439] istifoda etilgan. Turkman adabiy tilida va qisman shevalarida, o‘g‘uz lahjasida “*chumchuq*” so‘zi “seche-serche”[22:26] shaklida bir xil keltirilgan. Bunday so‘zlar hozirgi o‘zbek adabiy tilimizda uchramaydi.

Chumchuq so‘zi dastlab *chibchiq* shaklida istifoda qilingan. *Chibchiq* so‘zi asli “kichkina jonivor” ma’nosini bildiruvchi *chibi* so‘zidan kichraytirish ma’nosini ifodalovchi *-chiq* qo‘shimchasi bilan hosil qilingan bo‘lsa kerak; keyinchalik ikkinchi bo‘g‘indagi tor unli talaffuz qilinmay qo‘ygan; o‘zbek tilida **b** undoshi **m** undoshiga, **ı** unlisi **u** unlisiga almashgan: **chibi** + **chiq** = **chibichiq** > **chibchiq** > **chimchiq** > **chumchuq** [13:439].

Hozirgi o‘zbek tilida *chumchuq* so‘zi *chumchuqko‘z* so‘zining yasalishida asos vazifasini o‘tagan. *Chumchuqko‘z* bu mevasi jingalak tuklar bilan qoplangan, bir yillik dorivor o‘simlik [23:516] hisoblanadi.

6. Suvda yashovchi hayvonlar: *baliq, marjon, mohi, nahang, samak (5ta); Baliq* suzgichlari bo‘lgan, oyquloqlari orqali nafas oladigan, umurtqalilar kenja tipiga

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

mansub suv jonivori [24:148]. “Devon”da *baliqning* forscha *mohi*, arabcha *samak* kabi nomlari ham istifoda etilgan. Baliq so‘zi faqat bir o‘rinda uchramiz:

Zulfi birla soni shakli ko‘zum ichra erur,

Andayin baliq ilingan bahrdakim og‘ bor. [Devon I, 162-bet]

Samak so‘zi ham faqat bir o‘rinda qo‘llanilgan:

Ko‘rgali qoshingni gar ko‘z ichra boqsang nogahon,

Shaksiz ul havz ichra ko‘rungay ravon shakl-i samak. [Devon I, 294-bet]

Mohi shakli besh o‘rinda uchraydi:

Ko‘zumda zulfi birla soidi shakli kurunadur

Aningtakkim, ko‘runsa bahr ichinda og‘ ilon mohiy. [Devon II, 235-bet]

Qadimiy obidalar tilida *balaq*, *baliq*[5:80] tarzida istifoda etilgan. O‘g‘uz lahjasida *baliq*, qipchoq lahjasida *baliq*; qoraqalpoq tilida *baliq*; qirg‘iz tilida *baliq*, *balik*; qozoq tilida *baliq*; turk tilida *balik*[25:68] shaklida qo‘llangan.

Bu ot qadimgi turkiy tildagi “namlik”, “suv” ma’nosini anglatgan *ba:l* otining *bal* shakliga *-t* qo‘shimchasi qo‘shib yasalgan fe’ldan *-q* qo‘shimchasi bilan yasalgan bo‘lib, asli “suvda yashaydigan jonivor” ma’nosini anglatgan; o‘zbek tilida *a* unlisi *ä* unlisiga almashgan, *t* unlisining qattqlik belgisi yo‘qolgan: [(ba:l > bal) + t = bal-t] + q = baliq > baliq.[14:38]

Alisher Navoiy asarlarida *baliq*, *balig*‘[17:188] shakli uchraydi.

7. Hasharotlar: *zanbur*, *magas*, *mo‘r*, *mo‘rcha*, *pashsha*, *xaffosh*//*xuffosh*, *chibin* (7ta);

Chibin ikki qanotli, uzun mo‘ylovli qon so‘ruvchi mayda hasharot.[26:478] Hofiz Xorazmiy “Devon”ida nafaol qo‘llanilgan bu so‘z faqat bir o‘rinda qo‘llanilganini kuzatamiz:

Ziyon qilmas raqiblarning yurumaki sening birla,

Valekin ko‘ngul ozdurur chibin tushar esa oshg‘a. [Devon I, 32-bet]

Pashsha va *magas* so‘zlari *chibin* so‘zining forscha nomlari hisoblanadi. *Pashsha* shakli manbada uch o‘rinda uchraydi.

Har pashshakim, havo-yi muhabbatda bol ochar,

Ey shoh, ani nazar bila shohboz qilg‘asan. [Devon II, 74-bet]

Magas so‘zi ham *pashsha* ma’nosida qo‘llanilgan. Bu shakli o‘n besh o‘rinda istifoda etilgan:

Shohboz-i quds yanglig‘ har magas,

Bu havoda qayda javlon ko‘rguzur. [Devon I, 154-bet]

O‘g‘uz lahjasida *chi:v’n*; eski o‘zbek tilida *pashsha*; CC. *cibin*; Ibn Muxanna *çibin*; qozoq va qoraqalpoq tillarida *shibin* shaklida; totor tilida *cheben*; ozarbayjon tilida *chibin* tarzida; turkman tilida *chibin*, *chivin* tarzida;

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

qipchoq lahjasida *ch’b’n*[27:115] tarzida istifoda etilgan.

Qadimgi turkiy tilida ham “ikki qanotli, uzun mo‘ylovli qon so‘ruvchi hasharot” ma’nosini anglatgan bu ot asli *чибин, чигүн, чыбын, чыбун* tarzida talaffuz qilingan, o‘zbek tiliga *chibin* shaklida yetib kelgan. Hozirgi o‘zbek tilida *chibin* shakli so‘zlashuv nutqiga xos deb qaraladi, adabiy nutq uchun xos deb qaraluvchi *chivin* shaklida *b* undoshi *v* undoshiga almashgan: *chibin* > *chivin*. [15:422]

8. O‘rgimchaksimonlar: *aqrab* (*a. chayon*) (*Ita*).

Aqrab so‘zi eski o‘zbek tiliga arab tilidan o‘zlashgan o‘zlashma. “Devon”da uch o‘rinda ishlatilgan bu so‘z *chayon* ma’nosida istifoda etilgan:

Zulfi birla yuzi xurshid bilan shab ko‘runur,

Yo taqi ganj uzra mor ila aqrab ko‘runur. [Devon I, 151-bet]

Chayon “o‘rgimchaksimonlar sinfiga mansub, tanasi bo‘g‘in-bo‘g‘in umurtqasiz zaharli jonivor”. Qadimgi turkiy tilida bu ot asli *chadan* tarzida talaffuz qilingan, keyinchalik *chazan, chayan, chiyân* shakllari yuzaga kelgan. O‘zbek tilida bu asosan *chäyân* tarzida, qisman *chiyân* tarzida talaffuz qilinadi. [16:406]

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами. 20 томлик. Том XVI. - Тошкент. Фан. 2000. -Б. 244.
2. Бафоев Б. Кўхна сўзлар тарихи, Т., “Фан”, 1991., -Б. 111.
3. Древнетюркский словарь Ленинград 1969, -Б. 564.
4. Древнетюркский словарь Ленинград 1969, -Б. 211.
5. Древнетюркский словарь. Ленинград-1969., -Б. 80.
6. Ҳофиз Хоразмий. Девон. 1-китоб. Тошкент, 1981. -Б. 15-16.
7. Навоий асарлари луғати, Тузувчилар: Порсо Шамсиев, С.Иброҳимов. Т., 1972., -Б. 544.
8. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. Т., “Университет”, 2000. -Б. 356.
9. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати Т., “Университет”, 2000. -Б. 356.
10. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. Ш, Т., “Университет”, 2009., -Б. 179.
11. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. Т., “Университет”, 2000. -Б. 116.
12. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. Т., “Университет”, 2000. -Б. 439.
13. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. Т., “Университет”, 2000. -Б. 439.

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

14. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. Т., “Университет”, 2000. -Б. 38.
15. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. Т., “Университет”, 2000. -Б. 421, 422.
16. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. Т., “Университет”, 2000. 421, -Б. 406.
17. Юсуф Б. Навоий тили луғати. 5 жилдли, I жилд, Т., 2018. -Б. 188.
18. Ўзбек шевалари лексикаси. (Масъул муҳаррирлар: Ф.Абдуллаев, А.Ишаев). Т., “Фан”, 1966. -Б. 78.
19. ЎТИЛ, 5 жилдли, 3 жилд, “O‘zbekiston nashriyoti”, Тошкент-2020., -Б. 197.
20. ЎТИЛ, 5 жилдли, 2 жилд, “O‘zbekiston nashriyoti”, Тошкент-2020., -Б. 198.
21. ЎТИЛ, 5 жилдли, 3 жилд, “Ўзбекистон нашриёти”, Тошкент-2020., -Б. 434.
22. Ўзбек шевалари лексикаси. (Масъул муҳаррирлар: Ф.Абдуллаев, А.Ишаев). Т., “Фан”, 1966. -Б. 26.
23. ЎТИЛ, 5 жилдли, 4 жилд, “Ўзбекистон нашриёти”, Тошкент-2020., -Б. 516.
24. ЎТИЛ, 5 жилдли, 1 жилд, “Ўзбекистон нашриёти”, Тошкент-2020., -Б. 148.
25. Ўзбек шевалари лексикаси. (Масъул муҳаррирлар: Ф.Абдуллаев, А.Ишаев). Т., “Фан”, 1966. -Б. 68.
26. ЎТИЛ, 5 жилдли, 4 жилд, “Ўзбекистон нашриёти”, Тошкент-2020., -Б. 478.
27. Ўзбек шевалари лексикаси. (Масъул муҳаррирлар: Ф.Абдуллаев, А.Ишаев). Т., “Фан”, 1966. -Б. 115.